



**TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA
INNOVATION G'oyalar**



**MUHAMMAD YUSUF IJODIDA “BAXT” TUSHUNCHASI VA UNING
TALQINI. “QORA QUYOSH” DOSTONIDAGI “BAXTLI” INSONLARNING
QARASHLARI**

Zaripova Muxlisa Xamid qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar
fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Ilmiy rahbari: Allambergenova Nodira Gulmirzayevna

Annotatsiya: *Muhammad Yusuf she'riyatida baxt tasviri, badiiy tasvir usullari va uning o'ziga xos usullari, uni yaratishda shoir uslubi, va badiiyati masalalari o'r ganilgan.*

Kalit so'zlar. Poetika, inson, badiiyat, qadriyat, obraz, baxt, Vatan.

Insoniyat yaratilibdiki, umri davomida baxt tasavvurini o'z hayolida va hayotida yaratishga urinib keladi. Bilamizki, baxt tushunchasi keng qamrovli va asosan shukronalik tushunchasidir. Ayrimlar oilasi va unga ato etilgan narsa va hakozolarni baxt deb bilsa, ayrimlar unga berilgan imkoniyatlarni baxt deb ataydi. Albatta, kim nimani istasa va shu lahzalarga erishsa baxtli deyish mumkin.

Aytiz joizki, adabiyotda baxt tasviri judayam keng tushunchaga egadir. She'riyat olaming sodda va samimiyl qalb egasi Muhammad Yusuf ijodida baxt tasviri juda mohirona tasvirlangan. Shoir qalbi baxt va shu kabi hodisalarini tasvirlashda asosiy vazifani bajaradi. Ana shunday pokiza qalb egasi Muhammad Yusuf ijodi va uning mazmun mohiyati juda katta mavzuni qamrab oladi. Shoir ijodining katta qismi xalq qalbidan joy olib bo'lgan desam yanglishmagan bo'laman. Kitoblari o'quvchilar qolida bo'lsa, katta qismi deyarli qo'shiq qilib kuylandi. Muhammad Yusuf eng yosh xalq shoiri (1998) hisoblanadi.⁸⁷ Ijodkorning ijod olami rang-barang mavzularga boyligi ma'lum. Tili osdda, ravon, chin yurakdan aytilgan ruhiyat ifodasidir. Shoir she'rlari makon va zamon tanlamaydi, go'yo hozir o'qigan odamga bitilgandek o'qiladi. Ijodkorlarning yorqin ijod qilishida biografiya ham muhim.

Inson tug'iladiki, bu dunyo uni o'z ne'matlari, bori-yo'g'i bilan siylaydi.sinov va siyovlardan o'tadi. Balki bularninbg barchasi baxt uchundir...

Muhammad Yusuf she'riyatining o'ziga xosligi shundaki, tili soddam, ravon, oddiy ko'rinishga ega bo'lishiga qaramasdan unda hayot haqiqati va yurak izardorining yuksak tug'yoni jo'sh urib turadi. Shu bois ham ijodkor ijodi dillarni rom qilgan. Bunda inson va tabiatning ruhiyati tasvirlanadi. Adib ijodida mavzular rang-barangligi va ularning har biriga o'zgacha yondashuvi katta ahamiyatga ega.

⁸⁷<https://tafakkur.net/muhammad-yusuf.haqida>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



Muhammad Yusuf Vatan, ona, yor, muhabbat mavzularida she'rlar yaratish bilan bir qatorda u ota, qizlar va baxt mavzularida qalam tebratishga ham alohida yondashuvi bilan millionlab ko'ngillardan joy oldi. U rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi. Shuning uchun ham uning she'riyati butun ma'naviyatga to'la, muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz, taqdirimiz haqida kuylaydimi hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she'rlari oddiy, ravon, soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohang ko'rindi.

Muhammad Yusufning "Qora quyosh" dostoni 1988 - yilda yozilgan. Bizga tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi dunyodagi eng qadimgi xalqlardan biri sanaladi. Va bu xalq tarixda misli ko'rilmagam hodisalarini boshdan kechirgan. Ikki daryo oralig'ida joylashgan, zhamini hosildor, xalqi, mehnatkash, o'troq madaniyatning noyob namunalarini yaratgan bu diyorga kimlarning ko'zi kuymagan deysiz. Bosqinchi ketidan, bosqinchilar kelib, bu go'zal yurtni haqorat qilishga, boyliklarini talash, xalqini qullikka mubtalo qilishga urinardi. "Qora quyosh" dostoni aynan shu kurash maydonida yuz bergan voqealardan so'zlaydi. Muhammad Yusufning bu dostoni doston janridagi boshqa asalar singari to'liq bitta mavzuni qamrab olmagan. Asar qahramonlari ham bir yo'sinda harakat qilmaydi. Asarda arxiv materiallaridan ham foydalaniladi. Masalan, dastlab ma'lum bir tarixiy shaxsning xati beriladi, so'ng esa unga bag'ishlangan she'r.

Asar tarixda insonlarning kechirgan qora kunlari haqida aytildi. Hammamizga ma'lumki inson hayhotida yashashda baxtli bo'lishni va unga yetishni orzu qilib va yetishga harakat qilib yashaydi. Shu o'rinda erkin vohidovning baxt haqidagi quyidagi so'zlarini keltirish mumkin: Baxt shunday narsaki, borligida uni kishi sezmaydi, yo'qligida orzu qiladi. "Baxtli odam «men baxtliman» deb olamga jar solmaydi. Inson hech qachon baxtga to'yan, baxtim yetarli, degan emas".⁸⁸ Darhaqiqat inson har kuni baxtli bo'lib yurishi mumkin, lekin buni o'zi sezmaydi, his qilmaydi. Ba'zan juda ko'p holatlarda insonlar o'zida yo'q narsalarini baxt deb hisoblaydi. Asarda esa tarix zarvaraqlarida o'zining qahramonligi va jasorati bilan nom qoldirganlar va nomsiz fidoyilarcha vatani uchgun jontaslim qilganlar xotirlanadi. Ijodkor baxtli insonlarni shunday tasvirlaydiki, ular oxirgi nafasida baxtni his qiladi. Va bugungi kun uchun - biz yartaganga ming shukurlar aytsak arziydi!

Asar boshlanishidagi she'r qismiga e'tibor qaratamiz:

- Umr nima, ey odam?
- Umr yo'ldir bir quloch.
- Armon nima, ey odam?
- Armon ham bir ehtiyoj.

Shoirlar dunyoga hammaning ko'zi va qalbi bilan qaraydilar. Shu sababdan qalblarning to'lqinlari qog'ozga to'kiladi. Yuqoridagi bandda ta'kidlaganidek umr bu yo'ldir, uzun va qisqa. Shu umr yo'limizda shoir armon ham ehtiyoj ekanligi haqida aytmoqda. Ha albatta,

⁸⁸ <https://www.hikmatlar.uz/quote/1147>





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



insoniyat hayotida armon ham ehtiyoj, sababi armon borki, inson erishgan va erishmagan baxtining taftini his qilib yashashga muyassar bo‘ladi.

- Omad nima, ey odam?
- Ayvondagi qaldirg‘och.
- Orzu nima, ey odam?
- Bo‘ldi, mening qornim och...

Orzu nimaligini yaxshi bilamiz, ammo orzu ham ehtiyojdan kelib chiqadi. Orzu qilish ehtiyojingdan ortig‘ini olishga intilish, xohish-istak. Ma’lumki chanqab turgan yo‘lovchiga tezroq suv ichish va manziliga tezroq borish orzuning bir qismini egallaydi. Vaholanki, qorni och odam ham katta narsalani qornini to‘ydirgach orzu qiladi, shungacha esa, uning birdan bir orzusi ovqat yeyish. She’riyat olami dengizday bepayon, ummondek jo‘shqin, baliq suzishidek sokin hislarni ham o‘zida mujassamlashtira oladi.

- Yolg‘on nima, ey odam?
- Yolg‘on — o‘t o‘smas dala.
- Haq nimadir, ey odam?
- Haqiqat — yetim bola...
- Sevgi nima, ey odam?
- Sevgiga yo‘q hafsal.
- Baxt nimadir, ey odam?
- Baxt — bir kosa atala...
- Tolkosada atala...
- Tolkosa nima, ey odam?
- Tolkosa hayot, jo‘ra.
- Atala nima, ey odam?
- Stalin bobongdan so‘ra!..⁸⁹

Ko‘rib o‘tganimizdek asarda umrdan boshlab baxtgacha qancha narsani ko‘rish mumkin ekan. Ha umr yo‘lida orzu qilish ham bir baxtdir. Va armon ham baxtnui hi qilolmaslikdan kelib chiqadi. Dostonda aslida baxtsizlik, yo‘qotish tasvirlangan bo‘lishiga qaramasdan inson qaysi holatda baxtlilagini his qilishi mumkinligi haqida bilib olamiz. Armon ham bir ehtiyoj deydi yozuvchi, haqiqatdan ham baxtli odam baxt nimaligini aniq ayta olmasligi mumkin, lekin ungacha qancha armonlardan, qiyinchiliklardan o‘tganini, sinalganini o‘zi biladi xolos...

- Baxt nimadir, ey odam?
- Baxt — bir kosa atala...
- Tolkosada atala...

Aynan “baxt—atala” deyishi asosli. Och odamdan nima qilsang baxtli bo‘lsan deb so‘rasak u ovqat yesam deyishiga haqqi bor, albatta. Negaki insoniyat shunaqa, olisdagi narsalarga erishsam baxtli bo‘laman deb o‘ylaydi. Asar mazmunidan kelib chiqib tahlil

⁸⁹ M.Yusuf, Saylanma: She’rlar. Dostonlar. Xotiralar.- T.: “Sharq”, 2007. B-271





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



qiladigan bo'lsak, o'sha paytda odamlarni yerga urish, haqorat qilish va qoloqlikda, haq-huquqlarini poymol qilish kabi holatlar avj olgan bo 'lishiga qaramasdan, odamlar buyuklarni alqashi, ularga raxmat aytishi oliy "burch" hisoblangan. Xalqning ma'naviy qashshoqligidan foydalangan tuzumda bir kosa atala ham bamisol baxt kabitdir. Aslida har bir ishlatilgan so'zlar zamirida katta ma'no yotadi. Uni anglash va his qilish kerak.

O'layman,

Zaminda eng baxtiyor zot —

Yoki akademik,

Yoki besavod.

Biri o'qiganin tahlilin so'rmas,

Biri o'qishga ham urinib ko'rmas...

Shoirning mahoratiga va uning tasvirlash uslubiga qoyil qolmasdan iloj yo'q, albatta. Sababi, baxtiyor insonning ko'rinishini haqqoniy tasvirlab bera olgan. Yuqoridagi misralarni alohida tahlil qilsak. Bunda ijodkor o'yida "zaminda"gi so'zini olaylik, bu so'z butun yer yuzini tasvirlamoqda.

Demak, butun yer yuzida ikki xil insonlar toifasi "eng baxtli" hisoblanadi. Birinchisi, "akademik"- jamiki bilimlarni egallagani uchun va uni tahlil qilmagani uchun. Ikkinchisi, "besavod" – xatto o'qishga ham urinib ham, bosh qotirib ham o'tirmaydi. Ular bilishga qiziqmagani uchun ham baxtlidir balki...

"Qora quyosh" dostoni tarixiy davrning rangli jilosi, baxtsiz kishilarning o'y-hayollari va iztiroblaridagi baxti, shukronaligi keltirilgan. Shuning uchun ham doston nomi – "Qora quyosh" deb nomlangan. Quyosh chiqadi. Lekin uning rangi – qora. Mana quyidagi satrlarda nima uchun ekanligigni ko'rib o'tamiz.

Soqovni qamashdi,

Soqov «dushman»ni,

Siyosiy savodsiz,

Anqov dushmanni...

Qamashdi,

Bir kunda,

Paysalga solmay.

Aybi aniq edi,

Aybi ma'lum edi,

U dohiy otini

To'g'ri aytolmay,

Hammaning oldida

«Ishtalin» dedi!

Soqchiga mo'ltirar Soqov,

Qaltirar,

O'ldirishar endi,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



Uni

o'ldirar.

Qoldi uy,

Qoldi — g'urbatxonasi.

G'urbatxonasida — Qari onasi.

Yana bir zot ketdi,

Shunday qilib —

Soqovning boshiga

Yetdi o'z tili...

O'rmonda otishdi,

Qor edi qalin.

Yiqildi.

Hayqirib:

Yashash-shin Ishta-lin!

Soqovni otishdi,

Anqovligi uchun.

To'g'rirog'i —

Tug'ma Soqovligi uchun.⁹⁰

Stalin davrida xatto begunohlarga ham turli hil bo'htonlar qo'yib, ularni surgun qilishgan, otib tashlashgan. Bu qonli satrlarda soqov obrazi alohida ahamiyatga molik. Sababiki, u saqovligi sabab Stalin ismini to'g'ri aytaolmagani uchunqorda aytildi. Bunday bo'lishiga esa, bechora insoniyatning dohiy deb bilib, ongsizlarcha harakat qilishi sabab bo'ldi. Va aynan shu satrlarda saqovning baxti- Stalin ismini to'g'ri talaffuz qilaolishida edi...

Bundan tashqari, asarda tarixda quyosh bo'lib, ammo qora bo'lib porlab o'chgan Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Fayzulla Xo'jayevlar haqida yozilgan. Ha, bu zotlarning porlab chiqishi bir quyosh bo'lgan bo'lsa, bu dunyoni tark etishi ham xalq qalbini larzaga soldi. 37-yil yig'isi mana shunday ma'naviyat fidoyilarining baxtsizligini, hamda aybsiz-aybdor bo'lib qolganligini tasvirlab beradi. Bularning baxti balki vatani uchun va xalqi uchun jon kuydirib harakat qilganidadir. Bugunning farzandlariga yaratilgan kelajakka qo'shgan hissalaridadir.

Yo'qsa, ayting, Kim u?

Yo'qsa ayting, kim?

Yarim xalq qarg'aru

Yarim xalq yig'lar.

Mening savolimga

Eng to'g'ri javob —

Bera olguvchining hammasi uxlardir!..

⁹⁰M.Yusuf, Saylanma: She'rlar. Dostonlar. Xotiralar.- T.: "Sharq", 2007. B-271





Menga juda aziz
Uning siymosi,
Bir qarasam,
Yo‘qdek sira qiyosi.
U bir bag‘ri daryo,
Bir bag‘ritoshdir,
U bir quyosh
Ammo — Qora quyoshdir!

Davrlar sinovidan o‘tgan ajdodlarimizning nomi hamon dilimizdagи quyoshimizdir. Biz bugun shu quyosh nuridan bahramand bo‘lib, hayot yo‘lida o‘z baxtimizni toipishga harakat qilamiz. Baxt tasvirida ijodkor qarama-qarshilik qo‘yish, ya’ni baxtni baxtsizlik orqali, shukronalikda ko‘rsatib bera olgan.

“Shoir bo‘lish og‘ir, shoir bo‘lish qiyin. Shunday shoirlarning qahqashonida” - degan edi benazir ijodkorimiz Abdulla Oripov. Darhaqiqat, shoir bo‘lish ham, xalq qalbidan kuylash ham oson emas. Shoirlar dardlarni kuyga soluvchi yagona dillashadigan noyob qobiliyat egalaridir. Muhammad yusuf ham ana shunday soqov xalqning dardini, yuragidagi bor haqiqatlarni kuylay oldi. Bu kuylari bilan hozir ham qalbimizda mangu yashab kelmoqda.

“Muhammad Yusufning umri qisqa bo‘ldi. U shu qisqa hayotida tutamay yonib ijod qildi. O‘zidan o‘lmas, adabiy meros qoldirdi. Muhammad aka hech qachon hech kimga o‘xshamagan inson edi. Sodda, samimi. Qalbi go‘zal va uyg‘oq edi.”-deydi O‘zbekiston xalq artisti Yulduz Usmonova.⁹¹

Umr dengizida o‘zining ma’naviy boyligini bizga me’ros qoldirgan shoir Muhammad Yusuf ijodini o‘rganar ekanman, shuni aytish kerakki, bu ma’naviy boylikni egallahni istagan inson uni qayta va qayta o‘qimog‘i zarur.

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR

1. Matchanov S., Sariyev Sh. Abituriyent-2012 loyihasi turkumidan. To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri.-Toshkent, 2012.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. 1-kitob.- Toshkent, "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi.-Toshkent, 2017.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma. 2-kitob.- Toshkent, "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi.-Toshkent, 2017.
4. Muhammad Yusuf. Ishq kemasi.-Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991.
5. Ulug‘bek Hamdam. Ruhni uyg‘otuvchi so‘z. -Toshkent, Turon zamin ziyo. 2017.

⁹¹ M.Yusuf, Saylanma: She’rlar. Dostonlar. Xotiralar.- T.: "Sharq", 2007. B-375

